UDK: 81:81'37:340 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss5/a116**

TURLI SOHALARDAGI QASAMYODLARNING RASMIY TUZILISHI

ФОРМАЛЬНАЯ СТРУКТУРА КЛЯТВ В РАЗЛИЧНЫХ ОБЛАСТЯХ

FORMAL STRUCTURE OF OATHS IN DIFFERENT FIELDS

[1]Saminjonov Muxammadali
[1]Farg‘ona davlat universiteti chet tillari fakulteti ingliz tili kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada o’zbek tilida qo’llaniladigan qasamyodlarning rasmiy tuzilishi va ingliz tilida qo’llanilishi, ularning lingvistik va morfologik xususiyatlari, rasmiy qasamyotning turli sohalarda ishlatilishi, uning ahamiyati borasida fikrlar izchil bayon etilgan bo’lib, hozirgi zamon ingliz adabiy tilida oath, ya’ni qasamyod so‘zining sinonimlari vow va swear so‘zlari ekanligi, ingliz tilidagi izohli lug’atlarda oath so‘zi biror ishni bajarishga berilgan rasmiy va’da yoki biror ishning rostligini tasdiqlovchi rasmiy bayonotligi yoritib o’tilgan.

Аннотация

В статье последовательно излагаются официальная структура клятв, употребляемых на узбекском языке, и их употребление в английском языке, их лингвистические и морфологические особенности, использование официальных клятв в различных сферах, а также их значение, то есть синонимы слова. клятва — это слова клятва и клятва, а толковые словари английского языка поясняют, что слово клятва — это официальное обещание сделать что-то или официальное заявление, подтверждающее истинность чего-либо.

Abstract

In the article, the official structure of oaths used in Uzbek and their use in English, their linguistic and morphological features, the use of official oaths in various fields, and their importance are consistently stated. that is, the synonyms of the word oath are the words vow and swear, and the explanatory dictionaries of the English language explain that the word oath is an official promise to do something or an official statement confirming the truth of something.

Kalit so‘zlar: *qasam, rasmiy, ong, fikr, til, lingvistik, morfologik, qasamyod, vada, sinonim, o’xshash, bayonot.*

Ключевые слова: *клятва, должностное лицо, сознание, мысль, язык, лингвистическое, морфологическое, присяга, обещание, синоним, подобное, высказывание.*

Key words: *oath, official, consciousness, thought, language, linguistic, morphological, oath, promise, synonym, similar, statement.*

KIRISH

Qasamyod nutqiy janri tadqiqida hozirgi zamon ingliz va o‘zbek tillarida mazmunan ahd, va’da, ishontirish nutqiy harakatlarini ifodalovchi **oath, vow, swear** hamda **qasamyod, qasam, ont** so‘zlari sinonim birliklar sifatida tanlandi. *Oath* eski ingliz tilida XII asrlardaoir ko‘rinishida bo‘lganligini alohida ta’kidlash lozim. Ushbu so‘z ingliz tili etimologik lug‘atlarida "solemn appeal to God as a witness" (Xudoni guvohlikka chaqirib, tantanali ravishda murojaat qilish) va “rivial use of sacred names" (muqaddas nomlardan noo‘rin foydalanish) ma’nolarini anglatgan". *Vow* so‘zi esa diniy ruhdagi tantanali va’da (solemn promise, esp of a religious nature)ni anglatib, qadimgi ingliz tilida XIII asrda you, vau, vu (u) shakllarda qo‘llangani, *swear* so‘zi esa XV asrlarda *swerian* ko‘rinishida bo‘lgan va "tantanali qasamyod qilmoq" (a) take a solemn oath), qasam ichmoq (b) bind by an oath, (s) qo‘pol so‘zlardan foydalanish (use profane language) ma’nosini anglatgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi zamon ingliz adabiy tilida oath, ya’ni qasamyod so‘zining sinonimlari *vow* va *swear* so‘zlaridir. Ingliz tilidagi izohli lug’atlarda *oath* so‘zi biror ishni bajarishga berilgan rasmiy va’da yoki biror ishning rostligini tasdiqlovchi rasmiy bayonot (a formal promise to do something or a formal statement that something is true) va (eskirgan so‘z) jahli chiqqan, hayratlanganda aytilgan haqoratli so‘z yoki iborani (old fashioned) an offensive word or phrase used to express anger, surprise, etc.) anglatadi[1]. *Vow* so‘zi esa "biror ishni bajarishga berilgan, asosan, diniy, rasmiy va jiddiy va’da (a formal and seriout promise, especially religious vner to do sthi)ni bildiradi. *Swear* so‘zi qasamyod nutqiy janri tarkibida faqat fe’l shaklini olganda jahli chiqqanda qo‘pol va haqoratli so‘zlardan foydalanishni (1, to use rude or offensive language, usually because you are angry) yoki biror ishni bajarishga jiddiy va’da berishni (2. to make a serious promise to do 3th) anglatadi. Ingliz tilida vow so‘zi mazmunida oath, swear so‘zlariga qaraganda diniylik ruhi ko‘proq seziladi. *Oath* so‘zi

ma’nosida esa rasmiylik, *swear* so‘zida esa tantanali e’lon qilish orqali va’da berish anglashilishi mumkin.

Eski o iste’moldan chiqqan o‘zbek tiliga oid ilmiy-tarixiy manbalarda *bay’at, ant, and, qasam, qasamyod* kabi so‘zlar "qasamyod" ma’nosini ifodalaganligi qayd etilgan. Xorazm yodgorliklarida bay’at so‘zi "qasamyod" ma’nosida qo‘llanganligi to‘grisida ma’lumotlar uchraydi. Ammo ushbu so‘z o‘zbek tili taraqqiyotining oldingi davrlaridayoq n. Hozirgi zamon o‘zbek adabiy tilida iste’molda bo‘lgan ont so‘zi eski o‘zbek tilidagi *ant* va *and* so‘zlarining tillar taraqqiyoti davomida shakliy o‘zgarishga uchragan ko‘rinishidir.

Turkiy tillarda iste’molda bo‘lgan *ant* v*a and* so‘zlarining kelib chiqishi borasida turli fikrlar mavjud. Ba’zi tadqiqotchilar turkiy tildagi antni mo‘g’ul tilidagi *and*aning o‘zgarishga uchragan shakli desa, ba’zilar turkiy tillardagi "qasam", "qasamyod" ma’nosida qo‘llaniluvchi *ant*ni mo‘g‘ul tilida "aka-uka tutinish" ma’nosidagi *and*aga yaqinlashtiradilar. Ayrimlari esa fors tilidagi *and* bilan bog’lashga harakat qiladilar. Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi qasamyod so‘zi esa arabcha qasam va fors-tojikcha pad qil, ya’ni qasam so‘zlarini aytmoq so‘z birikmasining qisqargan shaklidir. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *ont* so‘zi va arab va fors-tojik tilidagi qasam, qasamyod so‘zlari faol qo‘llanadi. Ammo ont so‘zi hozirgi zamon o‘zbek tilida diniy, tarixiy va milliy ruhni aks ettirishda qo‘llanishga xoslanib qolgan. Arab va fors-tojik tilidan o‘zlashgan qasam va qasamyod so‘zlari shunday ma’nodagi sinonimik qatorni boyitib, hozirgi o‘zbek adabiy tilida tantanavorlik, ko‘tarinkilik, qat’iylik va keskinlik ifodasi uchun qo‘llaniladi.

Hozirgi ingliz adabiy tilida *oath*, ya’ni qasamyod so‘zining sinonimlari *uow* va *swear* so‘zlaridir. Ingliz tilining izohli lug‘atida *oath* so‘zi “haqiqatni aytishga va biror-bir ishni bajarishga berilgan rasmiy, jiddiy va’da" kabi (formal promise to do smth or formal statement that smth. is true. To take/ to swear an oath = promise to tell the true) va "qo‘rqqanda, umidsizlikka tushganda, achchiqlanganda, jahli chiqqanda va hokazolarda so‘kish, so‘kinishni (old fashioned: an offensive word or phrase used to express anger, surprise or etc.) anglatadi. *Vow* so‘zi esa "rasmiy va jiddiy va’da", aniqrog‘i, diniy tantanali va’da"ni (formal and serious promise, especially. religious one) bildiradi. *Swea*r so‘zi “jahli chiqqanda qo‘pol, so‘kish so‘zlarini aytish" (1. to use rude or offensive language, usually because you are angry. She fell over and swore loudly) va “biror ishni bajarishga jiddiy va’da berishni (2. to make a serious promise to do smih) ifoda etadi. *Vow* so‘zi mazmunida *oath, swear* so‘zlariga qaraganda diniy ifoda ustunlik qiladi. *Oath* so‘zidan rasmiylik, *swear* so‘zidan tantanali e’lon qilish orqali va’da berish anglashiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida qasamyod so‘zi *qasam, ont* so‘zlari bilan bir sinonimik qatorni tashkil qiladi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati"da qasamyod so‘zi “qat’iy va’da, ont" (a), "sodiqlik haqida rasmiy va qasamo‘zi o‘zining haqligi; so‘zning to‘griligi va shakli tasdiqlash, unga boshqalarni ishontirish uchun muqaddas narsalar, kimsalar nomini og’izgaolib aytiladigan mas’uliyatli so‘z, "sodiqlik haqida rasmiy ravishda beriladigan tantanali va’da, qasamyod[1,256], *ont* so‘zi esa "muqaddas narsalar yoki kimsalarning nomini aytib, ularni o‘rtaga qo‘yib berilgan qat’iy va’da” ma’nolarini bildirishi qayd qilingan[2,347].

Izohli lug‘atlardagi ma’lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, hozirgi o‘zbek tilidagi *qasamyod* so‘zi va *qasamyod qilmoq* so‘zlari anglatgan ma’nolarni hozirgi ingliz adabiy tilidagi vow, swear so‘zlarining fe’l shakllari yoki *vow, oath* so‘zlari to take, to make (to take an oath, to make an oail) fe’llari bilan birikib ifodalashi mumkin. Ammo ingliz tilida oath, sear so‘zlari "qasamyod" semasi bilan birga “jahli chiqqanda, hayratlanganda, qo‘rqqanda muqaddas shaxs yoki narsalar nomini tilgaolib, haqoratli, axloqsiz, qo‘pol so‘zlarni aytib, so‘kish, la’natlash, qarg’ash" ma’nolarini ham anglatadi. *Swear, oath* so‘zlarining bunday ifodasi hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi qasam, qasamyod, ont so‘zlari semantik strukturasida yo‘q. Masalan, *He slammed the door with a muttered oath - U so‘kingan holda eshikni qarsillatib yopdi.*

Hozirgi ingliz adabiy tilida *oath, swear* so‘zlari *"qasamyod"* semasi bilan birga, la’nat, qarg‘ish va hokazolarni anglatsa-da, ammo *vow* so‘zida bunday sema mavjud emas. Hozirgi zamon o‘zbek tilidagi qasamyod va ingliz tilidagi *oath, swear* so‘zlari ko‘proq rasmiy uslubda, ont, qasam so‘zlari, asosan, diniy uslubda, *swear* so‘zi esa ingliz tilida diniy ruhni beruvchi o‘ziga xos so‘z sifatida badiiy, publisistik va so‘zlashuv uslubida keng qo‘llanadi[3].

Hozirgi zamon ingliz adabiy tilidagi *oath, swear* so‘zlarining “haqorat, qarg’ish” semasi ko‘proq badiiy va so‘zlashuv uslubidagi matnlarda yuzaga chiqadi. Ushbu tadqiqotimizda ingliz

tilidagi *oath* va o‘zbek tilidagi qasamyod so‘zlarini ushbu so‘zlar sinonimik qatorining dominant so‘zlari sifatida belgiladik. Keyingi o‘rinlarda o‘zbek tilidagi qasamyod so‘zini ingliz va o‘zbek tillaridagi qasamyod nutqiy janrining barcha tiplarini nomlashda qo‘llaymiz.

NATIJA VA MUHOKAMA

Hozirgi ingliz va o‘zbek adabiy tillarida ifodalanuvchi qasamyod maxsus lingvistik (semantik, struktur, funksional, pragmatik va hokazo tuzilishlarga ega) xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida mustaqil nutqiy janrdir. Zero, u barcha tillar uchun ham universal tipologik hodisadir. O‘z vazifasiga ko‘ra qasamyod nutqiy janri har ikki til tizimida inson nutqiy faoliyati bilan bog’liq bo‘lib, asosan, so‘zlovchining o‘z xatti-harakati, so‘zlariga tinglovchini ishontirish yoki ahd, va’da qilish jarayonida yuzaga keladi. Gaplar qasamyod nutqiy janri darajasiga ko‘tarilishi uchun, avvalo, o‘sha gap so‘zlovchi tomonidan qasamyod nutqiy janrining maxsus qolipi orqali ifodalanishi talab qilinadi. So‘zlovchining ahd, va’da, ishontirish nutqiy harakatlarini ifodalovchi gapga qasamyod qolipining kiritilishi bilan haqiqiy ma’nodagi qasamyod nutqiy janri shakllanadi:

Masalan, ahd nutqiy harakati: Ingliz tilida: *I believe I’ll do it. By God! I’ll do it for her[4]. Ishonamanki, buni uddalayman. Xudo haqqi, buni u uchun qilaman.*

O‘zbek tilida: *Shoshma hali, peshonangdan ottirmasam, odam bolasi emasman[5,263].*

Ushbu gaplarda ahd nutqiy harakati qasamyod nutqiy janri orqali mutanosib ifodalanib, ingliz tilida by God, ya’ni Xudo haqqi iborasi bilan, o‘zbek tilida esa qarg’anish shaklidagi gap orqali jiddiy ahd qilganlik ifodalanmoqda.

Va’da nutqiy harakati.

Ingliz tilida:

- "I swear it. I swear by my love. I swear by your success happiness. I’ll do just what I say. I’ll go to hell"[6] .

- Qasam ichaman, sevgim haqqi qasam ichaman. Baxtimiz haqqi qasam ichaman. Hozirgina nima degan bo‘lsam, o‘shani qilaman. Aytganimni qilmasam, jahannamga ravona bo‘lay.

O‘zbek tilida:

Men ayol bo‘lsam ham undan o‘ch olaman.

- Sen singlimsan... sen uchun men o‘ch olaman. Qasam ichaman[7,372].

Va’da nutqiy harakati qasamyod nutqiy janri orqali ifodalanib, bajarilishi tayinligini uning bajarilishi ifodalamoqda.

Ishontirish nutqiy harakati.

Ingliz tilida: *To God who made me: if you come inside and find 100 pounds take it and shoot me and shoot my wife and children, I swear to God! The only money I have in this life is this twenty-pounds they gave me today[8,150]. – Meni yaratgan Xudoga qasam: agar ichkariga kirib, 100 funt topsangiz, uni olingda, meni otib tashlang, mayli, xotinim va bolalarimni ham otib tashlang. Xudo xaqqi qasam ichaman. Bu dunyoda topgan pulim bu - ular menga bugun bergan ushbu 20 funt, xolos.*

Ushbu gapda so‘zlovchining Xudo nomini tilga olish orqali ishontirish nutqiy harakati qasamyod nutqiy janri darajasiga ko‘tarilmoqda.

O‘zbek tilida:

Menga ishonavering. Hoy aka, mening nimam yoqmadi sizga, o‘ng qo‘lini cho‘ntagidan chiqardi u. Keyin Xoliqning yelkasidan avaylab tutib, o‘zi tamon qaratdi. O‘g’il bola gapni aytay sizga, agar xizmatimga rozi bo‘lmasangiz, bir tiyiningizni olmayman. Qasamga ishonmaslik - bu… Bu ham nomardlik, - dedi Xoliq bo‘lak gap topolmay[9,58].

Ko‘rinadiki, dastlab mardikor nutqida ishontirish nutqiy harakati “menga ishonavering” qolipi orqali ifodalangan. Lekin so‘zlovchining keyingi gaplari *o‘g’il bola gapni aytay sizga, agar xizmatimga rozi bo‘lmasangiz, bir tiyiningizni olmayman* ayni jumlalarni qasamyod janri sathiga olib chiqqan.

Umuman, har ikki til tizimida ahd, va’da, ishontirish nutqiy harakatlari va qasamyod nutqiy janri o‘rtasida darajalanish mavjud bo‘lib, bunday darajalanish ahd, va’da, ishontirish nutqiy harakatlarining qasamyodga aylanishida, ya’ni ushbu gaplarning qasamyod sathiga ko‘tarilishida ko‘rinadi.

Demak, qasamyod nutqiy janri barcha tillar uchun universal hodisa bulib, u kaysi tilda ifodalanmasin, ahd, va’da, ishontirish nutqiy harakatlarini yuqori sathga ko‘tarish vazifasini

bajaradi. Qasamyod nutqiy janridaahd, va'da, ishontirish nutqiy harakatlari markaziy o'rinni egallaydi. Buni quyidagi izohlar orqali ham ko'rsatish mumkin.

a) shaxslararo kelishuv.

Ingliz tilida:

I have one great request to all of you: never tell anybody what you have seen today", "We will not, my lord!" was the unanimous answer "Nay, swear upon my sword", said Hamlet-"Swear!"- a voice came to their ears from under the ground[10,20]. – Mening barchangizdan qattiq iltimosim bor. Bugungi ko'rgan narsalaringizni hech qachon hech kimgaaytmaysizlar. – Biz hech qachon aytmaymiz, milord! – Bir ovozdan javob berishdi. – Bunaqasi ketmaydi, mening qilichim bilan qasamyod qilinglar, - dedi Gamlet. – Qasamyod qilamiz! - degan bir tovush yer ostidan quloqlariga eshitildi.

O'zbek tilida:

Jo'ra, - dedi darrov past tushgan Fozil, nima bo'lsak ikkalamiz bo'ldik. Buni qishloqqa borib gullaganimiz bilan ikkovimizdan boshqa hech kim sharmanda bo'lmaydi. Shu yerda kelishib olaylik, birovga boshimizdan o'tganlarni gapirmaymiz. Gapirgan uchta harf, kelishdikmi? Ular qo'l tashlashib, qasam ichishdi[11,105].

b) o'z zimmasiga biror vazifa olish.

Ingliz tilida:

I ....swear by Almighty God that I will be faithfull and bear true allegiance to Her Majesty Queen Elizabeth II, her heirs and successors, according to lawton. –Qudratli Xudo nomi bilan qasamyod qilib aytamanki, men .... qonunga binoan qirolicha Elizabetta Hazrati oliyalari, uning merosxo'rlari va vorislariga sadoqatli bo'laman va haqiqiy sodiqligimni izhor qilaman.

O'zbek tilida:

Otajon, pok ruhingiz haqqi-hurmati, qotilingizdan qaqshatgich qasos alaman[12,64].

Ahd nutqiy harakatining ichki semantik tuzilishida qat'iy ahd qilish birlamchi mazmun kasb etadi. Masalan, ingliz tilida: *"My God!" - he shouted to the empty room, "I'll make him pay for it[13,164]. – Xudo haqqi, bo'm-bo'sh xonaga qarab baqirdi u, buning uchun u hali javob beradi*.

O'zbek tilida: *Hali qarab tur! Senlarni onangni ko'rsataman! Sholingni quritmasam, Ismat ismimni qismat qo'yaman[14,83]!*

Ishontirish nutqiy harakatning ichki semantik tuzilishi quyidagicha:

a) o'z so'zlari xatti-harakatlarining tasdig'i,haqiqat ekanligiga ishontirish.

Ingliz tilida: - *Honest to God, mister, I'm without a place to sleep[15,168]. — Xudo haqqi, janob, tunagani joyim yo'q.*

O'zbek tilida:

– Ikrom aka! Akajon, til tortmay o'lay, birorta erkakning yaqiniga yo'lagan bo'lsam...[16,251].

b) haqiqatga guvohlik berish (biror voqea-hodisaning rost yoki yolg'onligini tasdiqlash).

Ingliz tilida:

– I swear he can't talk English. He hasn't opened his mouth all night[41]. Qasam ichib aytamanki, u inglizcha gapira olmaydi. U butun tun davomida og'zini ham ochmadi.

O'zbek tilida:

– Men-ku, u bilan bir yostiqqa bosh qo'yganman. Oxiri nima ko'yga tushganimni ko'rib turibsan. Endi meni yaxshilab eshit. Tepamda Xudo turibdi. Agar aldasam, ikki dunyoyim kuyib ketsin. Xullas, ukajon, men akangdan bekorga ranjimaganman. Aniq besh yil bo'ldi, bir kuni erimni sening...[18,61-62].

Shuni aytish kerakki, qasamyod nutqiy janrida ishontirish nutqiy harakati mustaqil nutqiy harakat sifatida shakllanadi. Shu bilan birga, ahd, va'da nutqiy harakati ifodalangan matn mazmunida ishontirish nutqiy harakatining unsurlari saqlanadi. Masalan:

Ingliz tilida: *Apollo was very angry and as soon as Phaeton finished his tale, said: "I shall give you any proof you wish".And he made a vow to do that[19,63]. Apolloning juda jahli chiqdi va Farton bulgan voqealar hikoyasini yakunlashi bilanoq "Men senga dalil uchun o'zing xohlagan narsani beraman" - dedi va bunga qasam ichdi.*

O'zbek tilida: *– Oyijon, dedi qiz peshonasidagi to'zg'igan sochlarini to'g'rilab qo'yar ekan, - u bolaga tegizmasdim, shuning uchun.... Oyijon, ahmoqlik qilayotganimni keyin sezib qoldim....*

– Balki men o'lsam...

– Yo‘q, yo‘q, oyijon, undan ko‘ra men o‘lay, bir marta bunday ishni qildim, ikkinchi marta ko‘zim ko‘r, oyoqlarim shol bo‘lib qolsin... Sizning aytganingiz bo‘ladi... Nima desangiz, hammasiga roziman[20,279].

XULOSA

Umuman olganda, qasamyod nutqiy janrining leksik-semantik maydonini aniqlab olish orqali uning so‘zlashuv nutqidagi kommunikativ-funksional tiplarnni farqlash oson kechadi. Bunga yuqoridagi misollar orqali ham yaqqol ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. V жилдлик. 5-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
2. Cronin, A.J. Hatter’s castle. https://www.goodreads.com/book/show/634757.Hatter_s_Castle
3. Ойбек. Қутлуғ қон. – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги бадиий адабиёт нашриёти, 1966. – Б. 263.
4 Dreiser Th. The Financier. https://academic.oup.com/ywes/article-abstract/49/1/435/1661626? redirected.
5. Тоҳир Малик. Шайтанат. 3 китоб. – Тошкент: Шарқ, 2019. –Б.372
6. Achebe. Ch. Civil peace, 150.
7. Ҳотамов А. Эрка қизнинг қисмати. – Тошкент, 2005. – Б.
8. Shakespeare V. The Story of Hamlet, 20.
9. Исмоилов Н. Омонат ғор сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006. – Б. 105.
10. Саид Равшан. Тунги чинқириқ. Қиссалар, ҳикоялар. – Тошкент: Шарқ, 2005. – Б. 64.
11. Ҳошимов. Н. Эр либосли аёл. – Тошкент, 2009. –Б. 83.
12. Dreiser Th. Sister Carrie, 168.
13. Исмоилов Н. Иблис салтанати. Саргузашт-детектив роман. – Тошкент: Ўзбекистон, 2008. –Б. 251.
14. London J. Short stories, 41.
15. Исмоилов Н. Бургут тоғда улғаяди. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. –Б. 282.
16. Myths and legends, 63.
17. Saminjonov Muxammadali Salimjon o‘g‘li. – TILSHUNOSLIKDA NUTQIY JANRLAR VA SOHA QASAMLARI MASALASI FarDU. ILMIY XABARLAR 1-2023; 355-358.
18. Saminjonov Muhammadali - MANAGEMENT STYLE AND LEADERSHIP ISSUES Conference Zone 2021/11/30, P 61-62
19. Saminjonov Mukhammadali - OATHS CLASSIFICATION. OATHS OF THE FIELD The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2023/10/24, Volume 5, Issue 10, P 31-37
20. Muxammadali Saminjonov - TILSHUNOSLIKDA NUTQIY JANRLAR VA SOHA QASAMLARI MASALASI, Scientific journal of the Fergana State University, 2023/6/22, Issue 1, P 93-93
21. Muxammadali Saminjonov - ВОПРОС О РЕЧЕВЫХ ЖАНРАХ И ОТРАСЛЕВЫХ КЛЯТВАХ В ЛИНГВИСТИКЕ, Farg ‘ona davlat universiteti ilmiy jurnali, 2023/2/25, Issue 1, P 450-453
22. Saminjonov Mukhammadali - A SYSTEMATIC STUDY OF FIELD OATHS IN DIFFERENT LINGUISTIC-CULTURAL ENVIRONMENTS, American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 2022/10/13, Volume 9, P 178-182
23. Saminjonov Muhammadali FerSU - Analysis of Origins of Idioms in English and their Alternatives in Uzbek, Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT), Volume 12, Issue 13, P 6391-6396
24. Инглиз ва ўзбек тилларида такрорнинг лингвистик хусусиятлари Асқарова Шахноза Камолидиновна-2019 http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/48069
25. К вопросу преподавания английского языка как языка специальности на юридических факультетах высших учебных заведений (М.А. Голубцова, журнал "Вестник Университета имени О.Е. Кутафина (МГЮА)", N 11, ноябрь 2018 г.) http://ivo.garant.ru/#/document/77523433
26. Инглиз ва ўзбек тилларида қасамёд нутқий жанрининг қиёсий-типологик тадқиқи Хасанова Фотимахон Мамановна-2019 http://diss.natlib.uz/ru-RU/ResearchWork/OnlineView/47911